

HUQUQIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING TASNIFI

Ibragimova Mohigul Komiljon qizi
Termiz davlat universiteti Kompyuter va
Dasturiy injiniring kafedrasi o'qituvchisi
mohigul9618@gmail.com

Annotatsiya. Butun zamonaviy jamiyatni global axborotlashtirish jarayoni huquqiy axborot sohasini chetda qoldirmadi. Vaqtning tabiiy talabi-axborot kompyuter texnologiyalaridan foydalanish asosida elektron shakldagi hujjatlar bilan ishlashni tashkil etishdir.

Butun dunyoda huquqiy axborot hajmi o'sib bormoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda bu jarayon ayniqsa jadal kechmoqda. Bu butun davlat boshqaruv tizimini isloh qilish bilan bog'liq.

Kalit so'zlar: huquqiy axborot, global axborotlashtirish, axborot oqimi, kriminologiya, axborot xavfsizligi, intellektuallashtirish, kibernetika, avtomatlashtirilgan ta'lim, axborot modellari.

Kirish. Islohotlar davom etmoqda, yangi nizomlar qabul qilinmoqda va mavjud qonunlarga tez-tez bir necha marta o'zgartirishlar kiritilmoqda, bu ham qonun osti hujjatlarning o'zgarishiga olib kelmoqda va hokazo. Axborotning bu oqimini yengishning yagona vositasi axborotni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatish uchun kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdir.

Huquqiy sohani axborotlashtirish jarayonini quyidagi sohalarga bo'lish mumkin:

- axborot va axborotlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini shakllantirish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash, axborotga bo'lgan huquqlar;
- huquqiy sohada axborot resurslari va axborot xizmatlarini sertifikatlashtirish va litsenziyalash bilan ta'minlash;
- zamonaviy axborot texnologiyalari asosida huquqiy axborotlashtirish sohasini rivojlantirish;
- turli darajadagi banklar tomonidan yagona axborot va huquqiy makonda huquqiy axborot almashinuvini ta'minlash;
- huquqiy axborot resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish sohasida xalqaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish;
- axborotni muhofaza qilish, axborot jarayonlarida va axborotlashtirishda ishtirok etuvchi sub'ektlarning huquqlari.

Adabiyotlarni o'rganish. Ushbu sohada O'zbekiston Respublikasining 11.12.2003 y., 560-II-son "Axborotlashtirish to'g'risida" gi Qonuni, axborot

texnologiyalarini yaratish va ulardan foydalanish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi va O‘zbekiston Respublikasining 11.12.2003 y., 562- II-son "Elektron raqamli imzo to‘g‘risi” gi Qonuni, elektron raqamli imzodan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Asosiy qism. Kompyuter texnologiyalarining joriy etilishi huquqiy tartibga solishning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatdi. Quyidagi sohalarni ajratib olishimiz mumkin:

- Qonunchilik va qonun ijodkorligi faoliyati;
- iqtisodiy munosabatlar sohasidagi huquqni muhofaza qilish sohasidagi faoliyat;
- huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini ta’minlash;
- kriminologiya va sud-tibbiyot fanida;
- sotsiologik tadqiqotlarda;
- ilmiy tadqiqotlarda;
- huquqiy va iqtisodiy ta’lim tizimida;

Axborot texnologiyalar amaliy fan sifatida axborot jarayonlaridagi qonuniyatlar (axborotlarni jamg‘arish, qayta ishlash va tarqatish)ni o‘rganish, inson faoliyatining turli sohalarida kommunikatsiyalarning axborot modellarini yaratish, axborot tizimlari va texnologiyalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanadi.

Huquqiy axborot texnologiyalar umumiy axborot texnologiyalarning amaliy tarmog‘i hisoblanadi. Huquqiy axborot texnologiyalarning vazifalari va tabiatini tushunishga nisbatan har xil yondashuvlar mavjud. Aytib o‘tilgan qarashlardan kelib chiqib unga quyidagicha ta’rif berish mumkin.

Huquqiy axborot texnologiyalar – bu yuridik faoliyat sohasidagi axborot jarayonlarining qonuniyatlari va xususiyatlari, ularni avtomatlashtirish, yuridik faoliyatni takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish hamda huquqiy vazifalarni hal qilish uchun huquq fanlari nazariyasi va metodologiyasi, matematika, axborot texnologiyalar va mantiq, vosita va usullaridan kompleks foydalanish negizida yaratiladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tuzilishi va ulardan foydalanish usullari haqidagi fanlararo bilim sohasidir¹.

Huquqiy axborot texnologiyalar va huquqiy kibernetika g‘oyalarining vujudga kelishi va rivojlanishida V.N. Kudryavsev, D.A. Kerimov, O.A. Gavrilova, R.M. Lansman, Z.I. Kirsanov, S.S. Moskvina, N.S. Polevoy, A.R. Shlyaxov, L.G. Ejubov singari olimlarning ishlari katta rol o‘ynadi.

Huquqiy axborot texnologiyalarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

plyuralistik demokratiya va oshkorlik, jamiyatning har bir a’zosi normativ huquqiy hujjatlarning butun majmuidan foydalanish imkoniyatiga egaligi, zarur

¹ Бу таъриф профессор Н.С. Полевой томонидан таклиф қилинган.

vaqtda, zarur joyda va zarur shaklda erkin axborot olish imkoniyatining mavjudligi prinsiplarida huquqiy davlat qurishda faol ishtirok etish;

avtomatlashtirilgan ish joylari (AIJ), intellektual va maslahat tizimlarini joriy etishning ilmiy va amaliy asoslarini ishlab chiqish;

yuridik muassasa va organlarning faoliyatini intellektuallashtirish, adliyani va yuridik faoliyatning boshqa shakllarini amalga oshirishda ish samaradorligi va madaniyatini oshirish;

avtomatlashtirilgan ta’lim tizimlarini yaratish; yuridik kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashning nazariy va uslubiy muammolarini ishlab chiqish, yangi huquq ixtisosligi – «huquqiy axborot texnologiyalar» bo‘yicha yosh mutaxassislar korpusini shakllantirish.

Bugungi kunda huquqiy axborot texnologiyalarni ilmiy tadqiqotlarning o‘z predmeti, vazifalari va tadqiqot usullariga ega bo‘lgan istiqbolli va tez rivojlanayotgan yo‘nalishi sifatida ko‘zdan kechirish mumkin. Axborot texnologiyalar qoidalari va xulosalarini yuristlar yuridik tushuncha va kategoriyalar nuqtai nazaridan idrok etishlari lozim.

Huquqiy axborot texnologiyalar fani nisbatan yaqinda paydo bo‘lganiga qaramay, O‘zbekistonning huquq sohasini axborotlashtirish borasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda jiddiy yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Ular jumlasiga: respublika huquqiy axborot markazlari va tizimlarining tashkil etilishi; axborot va axborotlashtirish haqidagi qonun hujjatlarining chiqarilishi; bilim tizimlarining yaratilishi; matematika va axborot texnologiyalar kurslarining kiritilishi; axborot texnologiyalar sohasida xalqaro miqyosga chiqilishi kiradi.

“Axborot texnologiyalar huquqi” (yoki kompyuter huquqi) tushunchasi adabiyotlarda nisbatan yaqinda, jamiyatda hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida paydo bo‘ldi. U axborotlarni to‘plash, qayta ishlash va ulardan foydalanishni amalga oshiruvchi hisoblash tizimlaridan (hisoblash markazlari, xizmatlari, axborot-qidirish tizimlari va boshqalar) foydalanish jarayonida ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishga bevosita taalluqlidir. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi doirasida axborot texnologiyalar kodeksini va jamiyatdagi hisoblash tizimlarining ishini optimallashtirishga yo‘naltirilgan boshqa huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Bizning nazarimizda, axborot texnologiyalar huquqi yoki kompyuter huquqiga hozirgi ko‘rinishida huquqiy axborot texnologiyalarning aspekti sifatida qaralishi mumkin. Ammo istiqbolda bu bilim sohasi huquqiy axborot texnologiyalardan ajralib chiqishi va yurisprudensiyaning mustaqil yo‘nalishini tashkil etishi mumkin.

Binobarin, huquqiy axborot texnologiyalar mustaqil bilim sohasi sifatida huquq, huquq tizimi va umuman yuridik faoliyatga axborot nuqtai nazaridan, yaxlit huquqiy-axborot tuzilmalari sifatida qaraydi va o‘rganadi.

Huquqiy hodisalar va jarayonlarga informatsion yondashuvdan hamda huquqni rivojlantirishning asosiy aspektlaridan kelib chiqib, huquqiy axborot texnologiyalar fanining predmeti doirasida huquqiy voqelikni axborotlashtirish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan vazifalarning ikki turkumini ajratish mumkin.

Birinchi turkumga nazariy vazifalar: axborot texnologiyalarning predmeti, metodlari va nazariy g‘oyalarini aniqlashtirish; huquqning izchil axborot konsepsiyasini, ya’ni huquqning informatsion tabiati haqidagi ta’limotni ishlab chiqish; jamiyatdagi huquq tizimi, uning kichik tizimlari va elementlarining axborot aspektlarini o‘rganish; jamiyatda huquqiy-axborot ta’siri ko‘rsatishning samarali tuzilma va modellarini ishlab chiqish; huquqiy axborot nazariyasini yaratish; huquq normalari va huquqiy tartibga solishning informatsion tabiatini o‘rganishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan kompyuter texnikasi va dasturiy vositalardan foydalanishning metodik asoslarini ishlab chiqish; huquq sohasida informatsion modellashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish va boshqa shunga o‘xshash vazifalar kiradi.

Ikkinchi turkumga amaliy xususiyatga ega bo‘lgan vazifalar kiradi. Bular avvalambor har xil axborot texnikasidan keng foydalanish asosida yuristlarning amaliy faoliyatini takomillashtirish vazifalari, shu jumladan yuridik firmalar, markazlar, agentliklar va uyushmalarning ishida kompyuter texnikasidan foydalanilishini optimallashtirish vazifalaridir. Korxonalar, birja, kompaniya va banklarning yuridik xizmatlari faoliyatida kompyuterlar va boshqa texnikadan foydalanilishini takomillashtirish; amaliy axborot-qidirish tizimlarining ishini yo‘lga qo‘yish; huquq ijodkorligida va qonun hujjatlarini tartiblashda, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining ishida va huquqiy targ‘ibotda shaxsiy kompyuterlardan foydalanish; hozirgi zamon axborot texnologiyalari uchun qonun hujjatlarini ishlab chiqish vazifalarini ham shular qatoriga kiritish mumkin.

Bilimning boshqa ko‘pgina sohalari singari, huquqiy axborot texnologiyalar fan sifatida huquqiy axborotlar milliy tizimini tashkil etish vazifalarini, huquq va davlat tizimlari hamda siyosiy tizimni axborotlashtirish sohasidagi davlat siyosatini, yagona axborot maydoni tushunchasini, umumiy va huquqiy axborot tushunchasini, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash sohasi, kriminalistika va sud ekspertizasi, sotsiologik tadqiqotlar va boshqa sohalarda foydalanish yo‘llari va vazifalarini o‘rganish metodologiyasi va usullarini o‘z ichiga oladi va o‘rganadi.

Huquqiy axborot texnologiyalar, davlat va huquq nazariyasida hamda umumiy, “katta axborot texnologiyalar”da o‘z ildizlariga ega bo‘lgan holda, huquqqa va yuridik faoliyatning barcha sohaslariga mustaqil yondashadi; u huquq va huquqiy mexanizmlar sohasidagi umumiy va muayyan axborot muammolari va vazifalarini tadqiq qiladi.

Huquqiy axborot texnologiyalar ma’lum huquqiy tizimlar, hodisalar va jarayonlarni yangi nuqtai nazardan – umumlashtirilgan axborot pozitsiyalari nuqtai nazaridan o‘rganish, ularni yaxlit bir butun axborot tuzilmasi ko‘rinishida tasavvur qilish imkonini beradi.

Huquqiy axborot texnologiyalarning ilmiy maqomi va sohasiga aniqliklar kiritib borilmoqda. Huquqiy axborot texnologiyalar hali mustaqil fan shakliga kirgani yo‘q. U nisbatan quyi pog‘onada – fanlararo bilim sohasi pog‘onasida turadi.

Natijalar. Huquqiy axborot texnologiyalarni qator turdosh ilmiy yo‘nalishlardan farqlay bilish zarur. Biroq bu uning ilmiy va amaliy ahamiyatini kamaytirmaydi. Chunonchi, huquqiy axborot texnologiyalarni “Axborot huquqi” kursidan chegaralash lozim. Bu kursning vazifasi axborot va axborotlashtirishga doir qonun hujjatlarini o‘rganishdan iborat. Mustaqil axborot fani – “Kompyuter savodxonligi kursi” o‘rta maktab o‘quv fanlari qatoriga kiritilgan va mamlakatning barcha oliy o‘quv yurtlarida, shu jumladan yuridik o‘quv yurtlarida ham o‘qitiladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki axborot texnologiyalari nafaqat huquq, balki, barcha sohalarda keng foydalanib kelinmoqda.